

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**KARIMOVA NAZOKAT ABDUVARISOVNA**

**MUQIMIY VA O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING RIVOJI**

**17.00.02 – Musiqa san’ati**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)  
on art history**

**Karimova Nazokat Abduvarisovna**

Муqimiy va o‘zbek musiqa  
san’atining rivoji..... 5

**Каримова Назокат Абдуварисовна**

Муqими и развитие узбекского  
музыкального искусства..... 23

**Karimova Nazokat Abduvarisovna**

Муqimi and the development  
of uzbek musical art..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 49

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**KARIMOVA NAZOKAT ABDUVARISOVNA**

**MUQIMIY VA O‘ZBEK MUSIQA SAN‘ATINING RIVOJI**

**17.00.02 – Musiqa san‘ati**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/San189 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafasi doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning ([www.konservatoriya.uz](http://www.konservatoriya.uz)) va “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yunusov Ravshan Yusupovich**  
san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Erkinov Aftondil Sadirxanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Kasimxodjayeva Saida Botirovna**  
san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “26” dekabr kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871)244-53-20; e-pochta: [info@konservatoriya.uz](mailto:info@konservatoriya.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (33-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-pochta: [info@konservatoriya.uz](mailto:info@konservatoriya.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “12” dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil “12” dekabrda 17 raqamli reyestr bayonnoma).

**T.B.G‘ofurbekov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**B.Sh.Ashurov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.B.Kasimxodjayeva**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon musiqiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan ma‘rifatparvar ziyolilarning o‘zbek mumtoz musiqa san‘ati ravnaqi yo‘lidagi faoliyatiga e‘tibor qaratib kelinmoqda. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yurtimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan zabardast siymolar faoliyati va ularning musiqiy merosi jahon musiqashunosligi ilmiy-amaliy tajribasida o‘ziga xos nazariy hamda metodologik muammolari bilan bir qatorda ilmiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etuvchi tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning ijodiy merosini tadqiq etish bugungi kunda ham o‘zbek mumtoz musiqasining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq anglashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo musiqashunoslik ilmida buyuk mutafakkirlarning Sharq mumtoz musiqasi ravnaqiga qo‘shgan hissasini hamda allomalarimiz musiqiy merosining ilmiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish masalasi bugungi kunda dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Shu bilan birga, bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqiy asarlarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish, o‘rganilayotgan davrga oid musiqiy amaliyotda qo‘llanilgan cholg‘ular, atamalar hamda janrlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o‘rganish musiqashunoslikda maxsus ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo qiladi.

Yurtimizda o‘tmish ziyolilarining ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbek mumtoz musiqasiga hissasini qo‘shgan hassos namoyandalarning ijodini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. “Ko‘hna Farg‘ona zamini jahon ilm-fani va madaniyatiga Ahmad Farg‘oniy, Burhonuddin Marg‘inoniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Amiriy va Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy, Mavlono Muqimiy, Zokirjon Furqat kabi o‘nlab mutafakkir zotlarni, ulug‘ shoir va adiblarni, Qodirjon Haydarov singari mashhur hunar ustalarini yetkazib bergani bilan har qancha faxrlansak arziydi”<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotda Mavlono Muqimiyning musiqiy qarashlari, zamondosh san‘atkorlarga munosabati va maqomlarda she‘rlari qo‘llanishi ilmiy asosda tadqiq etilib, natijalar amaliyotga joriy etishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son, 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022-son, ayniqsa, 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son, 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqidan. 2019-yil, 14-sentabr. <https://president.uz/oz/lists/view/2863>.

huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** San'atshunoslik ilmida she'riyat va musiqa masalalariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar alohida o'rin tutadi. Xususan, T.G'ofurbekov, Z.Karimova, Z.Oripov, R.Abdullayev, O.Ibrohimov, B.Muhamedova, S.Kasimxodjayeva, L.Djurayeva<sup>2</sup>larning ilmiy ishlari ushbu yo'nalishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Z.Karimovanning "Навои в музыке" nomli tadqiqotida buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy obrazining kompozitorlik ijodiyotidagi badiiy talqini hamda uning musiqiy shakllarda ifodalanish xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Unda Navoiy siymosining turli kompozitorlar asarlarida qanday badiiy vositalar orqali gavdalantirilgani, shuningdek, musiqiy merosimizda Navoiy timsolining tutgan o'rni haqida qimmatli ilmiy mulohazalar ilgari suriladi.

O.Ibrohimov o'z tadqiqotlarida Navoiy baytlarida tilga olingan maqomlarni tahlil qiladi hamda ularning tasavvufga oid mazmun va ma'nolarini yoritib beradi. Olim maqomlarning nafaqat musiqiy ahamiyatiga, balki ularning tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqligiga ham alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, u maqomlarning badiiy-estetik talqinini Navoiy ijodi orqali ochib beradi. Tadqiqotlarda maqomlarning ruhiy-ma'naviy tarbiya jarayonidagi o'rni ham keng yoritiladi. Shuningdek, olimning qarashlari o'zbek mumtoz musiqa an'alarini chuqurroq anglashga ilmiy asos yaratadi.

B.Muhamedovanning ilmiy izlanishlarida ma'rifatparvar ziyolilar faoliyatida o'zbek musiqasi bilan bog'liq jarayonlar atroflicha tahlil qilinadi. Olimaning tadqiqotlari milliy musiqiy merosning shakllanishi, uning nazariy asoslari, ijrochilik amaliyotidagi o'rni va badiiy-estetik qadriyat sifatidagi ahamiyatini chuqur ochib beradi. Shuningdek, u musiqiy merosni zamonaviy san'atshunoslik mezonlari asosida baholab, uning taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratadi.

S.Kasimxodjayeva o'z tadqiqotlarida XX asrdagi o'zbek tarixiy musiqashunosligi va musiqiy tanqidchilikning shakllanish jarayonini tizimli ravishda tahlil etadi. Olimaning ishlari milliy musiqashunoslikning ilmiy tamoyillarini aniqlashga, shuningdek, bu jarayonning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotlarda shoirlar obrazining

---

<sup>2</sup> Гафурбеков Т. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. – Ташкент: "Фан", 1987; Гофурбеков Т. Навоий ва мусика. – Тошкент: Мерос. 1991. 13-б; Ҳазрат Навоийнинг мусикий тафаккури // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 й. 3-май; Сайланма. – Тошкент: "Мусика", 2009 ва бошқа нашрлари; Каримова З.Г. Навоӣ в музыке. – Ташкент: "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат", 1988; Орипов З. Навоӣ даври мусикий рисолалари // Мусика ижодиёти масалалари. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002. 47–52-б; Абдуллаев Р. Мутал Бурхонӯв ижодида Алишер Навоӣ сиймоси // Мусика ижодиёти масалалари. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002. 79–86-б; Иброҳимов О. Ҳазрат Навоӣ ва мақом // Мусика ижодиёти масалалари. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002; Алишер Навоӣнинг мусикий-эстетик қарашлари // "Алишер Навоӣ ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти" мавзусидаги Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: 2011; Муҳамедова Б. Авлоний ва мусика санъати. Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. № 1 (21). 2003; Ғулом Зафарийнинг фаолиятида ўзбек классик мусикаси масалалари. "Шашмақом анъаналари ва замонавийлик". Халқаро илмий конференция материаллари. – Самарқанд: 2005. 27–29 август. "Мусика", – Тошкент: 2005; Касимходжаева С. Мутал Бурхонӯв ижодида Фитрат, Чўлпон, Усмон Носир // Мутал Бурхонӯв 100 йиллигига бағишланган конференция мақолалар тўплами. – Тошкент: 2016; Опера "Садоқат" Рустама Абдуллаева. Песнь любви и верности // Сборник статей к юбилею Х.Алимджана. – Ташкент: 2020; Джураева Л. Алишер Навоӣ ва мусика санъати. Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2021.

kompozitorlik ijodida musiqiy shakl va ifoda vositalari orqali talqin qilinishi, ularning badiiy-estetik qimmatini belgilashga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, o'zbek musiqashunosligida musiqiy folklor va og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlariga (ashula, katta ashula, maqom va b.) oid masalalarni teran anglash I.Rajabov, T.G'ofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, R.Yunusov, K.Olimboyeva, O.Ibrohimov<sup>3</sup> kabi musiqashunoslar tomonidan batafsil yoritilgan.

R.Yunusov<sup>4</sup> atoqli hofiz va bastakor Fattohxon Mamadaliyevga bag'ishlangan monografiyasida Muqimiy she'riyati durdonalaridan "Ahd qildim", "Jahondur bu", "Darkor emas", "Ayrilmasun", "Ol xabar", "Qalandariy" turkumining 1-qismi "Kim desun" musiqa muxlislari orasida "Soyaiy" nomi bilan ma'lum va mashhur ashulalarining ilmiy tahlillari tadqiqotimiz uchun muhim uslubiy asos bo'ldi.

Muqimiy va u yashagan davr musiqa madaniyati xususida dunyo sharqshunos olimlari Arminiy Vamberi (Vengriya), Vladimir Nalivkin, Nikolay Belyavskiy, Mixail Alibekov, Nikolay Ostroumov, Yevgeniy Bertels, Vasiliy Bartold, Anna Troitskaya, Sofiya Krukovskaya, Anatoliy Kolbinsev (Rossiya)larning<sup>5</sup> asarlari muhim manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotchilarning yozib qoldirgan ishlari Farg'ona vodiysi, Qo'qon madaniy hayoti bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim qilsa-da, biroq Muqimiy siymosi borasidagi fikr va mulohazalar deyarli ochiq qolgan.

Dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda o'zbek adabiyotshunos olimlaridan G'afur G'ulom, G'ulom Karimov, Homil Yoqubov, Azizxon Qayumov, Hodi Zarifov, Hoshimjon Razzoqov, Abdurashid Abdug'afurov, Sobir Abdulla, Sotti Husayn, Abdullatif Turdialiyev, Baxtiyor Babadjanov, Otabek Jo'raboyev, Qo'ldosh Pardayev, Zebo Qobilova<sup>6</sup>larning tadqiqotlarida muayyan e'tibor qaratilgan.

---

<sup>3</sup> Ражабов И. Макомлар. – Тошкент: "San'at", 2006; Ражабов И. Шарқ мусика атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: "Tamaddun", 2023; Гафурбеков Т.Б. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Ташкент: "Укитувчи", 1984; Гафурбеков Т.Б. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. – Ташкент: "Фан", 1987; Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. – Ташкент: "Укитувчи", 1984; Матёкубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал мусика асосларига кириш. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1983. Матёкубов О. Мақомот. – Тошкент: "Музыка", 2004; Матякубов О. Додекаграмма. – Ташкент: "Истиклол", 2005; Abdullayev R. An'anaviy o'zbek musiqa asoslari. – Toshkent: "Musiq", 2022; Юнусов Р. Макомы и мугамы. – Ташкент: "Фан", 1992; Юнусов Р. Ўзбек мақомлари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2018; Олимбоева К. Ўзбек аёли ҳаётида мусика. – Тошкент: "Ёзувчи", 1996; Иброҳимов О. Мақом ва макон. – Тошкент: "Мовароуннахр", 1996; Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. – Ташкент: "Юнеско", 2006.

<sup>4</sup> Юнусов Р. Фаттоххон хофиз. – Тошкент: "Adast poligraf", 2022.

<sup>5</sup> Вамбери А. Очерки о Средней Азии. – Москва: 1886; Наливкин В. Краткая история Кокандского ханство. – Казань: 1886; Белявский Н. Материалы по Туркистану, б. м. 1894; Алибеков М. Домашняя жизнь последнего кокандского хана. – Ежегодник Ферганской области, т. II, Н. – Маргелан: 1903; Девони Муқимий. Из дивана Муқими, Ферганского поэма. Издал Н.П.Остроумов. – Ташкент: 1907; Бертельс Е. Персидская литература в Средней Азии. В сборнике "Советское востоковедение", том V. – Москва-Ленинград: 1948; Бартольд В. История Коканда и Ферганской долины / Сочинения. Т. III. – Москва: 1965; Троицкая А. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: "Наука", 1968; Круковская С. Встречи с Кокандом. – Ташкент: 1977; Колбинцев А. Путешествие по Ферганской долине. – Ташкент: 1979.

<sup>6</sup> Гафур Ғ. Муқимий баёзи. Танланган асарлар. – Тошкент: "Ўздавнашр", 1938; Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижодини ўрганиш тарихидан. Ўрта Осиё давлат университетининг илмий асарлари. Ўзбек адабиёти. Янги серия, 15-китоб. – Тошкент: 1957; Ўзбек демократ шоири Муқимий ва унинг даври адабиёти. – Тошкент: 1962, Док. дисс.; Муқимий ҳаёти ва ижоди. Монография. – Тошкент: 1970; Муқимий. Асарлар. Нашрга тайёрловчи Ғулум Каримов. – Тошкент: 1974; Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: 1987; Ёқубов Ҳ. Ўзбек демократик шоири Муқимий. – Тошкент: 1953; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: 1961; Муқимий.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy prinsiplari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Muqimiy ijodiy merosi orqali XIX asr madaniyatida musiqaga oid masalalarni, o'zbek musiqa madaniyatida Muqimiy ijodining qirralarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XIX asr Farg'ona vodiysi madaniy-musiqiy hayotiga oid adabiyotlarni o'rganish, tahlil va tavsif etish, Qo'qon xonligi davri musiqa hayotini yoritish;

Muqimiy she'riyati va musiqa kesimida zamondosh san'at ustalari, Muqimiy asarlarida musiqachilarning ta'rifi, shoirning musiqiy qarashlarini ochib berish;

Muqimiyning barcha asarlaridagi musiqiy istilohlar – musiqiy shakl va janrlar, adibning asarlarida nomlari tilga olingan zamondosh san'atkorlar, bastakorlar va ular yaratgan asarlarni aniqlash va tasniflash;

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari ijodida Muqimiy siymosiga murojaat etilgan asarlarni o'rganish va tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyeksi** sifatida Muqimiyning she'riy, nasriy, ilmiy-badiiy asarlari va ularda keltirilgan musiqa ilmiga oid masalalar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Muqimiyning g'azal, murabba va muxammaslarida qo'llanilgan musiqiy atama, bastakor va san'atkorlar nomlari qo'shiq va ashulalarda aks etishini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tasniflash, tarixiy-qiyosiy, musiqiy-tanqidiy va tahliliy ilmiy usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Muqimiy ijodiy merosi va uning zamondosh san'atkorlar – hofiz, sozanda hamda bastakorlarning faoliyati doirasida yaratilgan "Bayot", "Chorghoh",

---

Танланган асарлар. – Тошкент: 1973; Зарифов Ҳ. Муҳаммад Амин Муқимий. – Тошкент: 1955; Раззоқов Ҳошимжон. Муқимий ва Завқий. – Тошкент: 1955; Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Тошкент: 1976; Собир Абдулла. Мавлоно Муқимий. Бадий лавҳалар. – Тошкент: 1978; С.Абдулла. Муқимий (драма). – Тошкент: 1965; Ҳусайн Сотти. Шоир Муқимий. Танланган асарлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974; Турдиалиев А. Муқимийнинг янги аниқланган дастхатлари // "Адабий мерос", 1988, 1-сон; Шоир мактуби // ЎзАС, 2001, 12 январь. Муқимий. Боғ аро. Нашрга тайёрловчи, луғат ва изоҳлар муаллифи А.Турдиалиев. – Тошкент: 2010; Аҳли донишлар аро ҳам рутбаси аъло Муқим... // "Янги Ўзбекистон", 2020: 2 июль, 121-сон, 6-б; Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Ташкент: "Yangi nashr", 2010; Пардаев Қ. Муқимий шеърятда давр зиддиятлари тасвири // Илм сарчашмалари. – Тошкент: 2012. № 10; Муқимий ва унинг даврадошлари ижодига чизгилар // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. – Тошкент: 2012; Муқимийнинг кўлэзма баёзлари // "Ўзбек тили ва адабиёти". – Тошкент: 2013. № 3; Муқимий ижодининг ўрганилишига доир баъзи мулоҳазалар // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент: 2013. № 1; Муқимий шеърятда таҳрир масаласи. // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент: 2014. № 1; Муқимий "Сайёхатнома"си матни тарихидан // "Шарқ юлдузи". – Тошкент: 2015. № 4; Муқимий мувашшахлари // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент: 2015. № 1–2; Муқимийнинг янги мухаммаслари таҳлили // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент: 2015. № 12; Муқимийнинг уч ҳажвияси // Филология масалалари. – Тошкент: 2015. № 2; Жўрабоев О. Муқимийнинг "Чўнтак баёзи" // "Гулистон". 1999, 2-сон; Муқимий дастнавислари ҳақида // "Адабиёт кўзгуси", 2000, 5-сон; Фафур Ғулом – муқимийшунос // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2003, 2-сон; Муқимий назмининг назокати. // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2020, № 34, 4 сентябрь, 4-бет; Ризо бирла борамиз. Хужжатли қисса. "Шарқ юлдузи", № 7 (8-б), № 8 (125-б), 2021; "Кўнглум сандадур ёхуд Қўкон Ушшоғи" (Шоир Муқимий ҳаётдан лавҳалар: икки парда, олти кўринишли) мусикали драма; Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Матншунослик ва адабий манбашунослик филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент: 2020; Qobilova Z. Amiriy va Muqimiy. – Farg'ona: 2020.

“Ushshoq”, “Navo”dan tashqari “Ko‘cha bog‘i”, “Gulyor”, “Kurt” kabi musiqiy namunalar mavjudligi aniqlangan;

Muqimiy she‘riyatidagi musiqiy atamalardan savt, navosanju, nag‘masaro, ruhafzo xonish, cholg‘ulardan setor, tanbur, qonun, dutor, ruhavzo hamda maqomlardan “Bayot”, “Ushshoq”, “Gulyor” kabilar ijrochilik amaliyotida foydalanilganligi ilk bor aniqlangan;

O‘zbekiston bastakorlari tomonidan ijod qilingan – Faxriddin Sodiqovning “Ey, chehrasi tobonim”, To‘xtasin Jalilovning “Ol xabar”, Fattohxon Mamadaliyevning “Ayrilmasun”, Furqat Bobojonovning “Ey, yori jonim” Dugoh va Chorgoh pardasi, ya‘ni ohang tizimi, ritmik tuzilishi va ijro uslubi nuqtai nazaridan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga yaqin ekanligi dalillangan;

Muqimiy siymosining musiqali drama, maqom spektakli va kino san‘ati kabi janrlarda, musiqiy asarlarda usul-ritmning murakkabligi, ijro uslubi mukammalligi, diapazon kengligi, so‘zlarning bo‘g‘inlarga to‘g‘ri taqsimlanishi singari o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Muqimiy va zamondosh san‘atkorlarning ijodi hamda ular yaratgan ayrim musiqiy asarlar ilk bor aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan;

Muqimiy she‘rlarida uchraydigan musiqiy atamalar, cholg‘ular va maqom nomlarining ijrochilik amaliyotida qo‘llanganligi dalillangan;

O‘zbekiston bastakorlari yaratgan ayrim ashulalarning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari bilan bog‘liqligi ilmiy asosda isbotlangan;

Muqimiy obrazi musiqali drama, maqom spektakli va kino asarlarida o‘rganilib, undagi musiqiy ifodaning badiiy-uslubiy hamda ijro texnikasi jihatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Chiqarilgan xulosalarni ilmiy gipotezalarning amaliyotda ijrochilar bilan sinab ko‘rilishi orqali mustahkamlangan. Bundan tashqari, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, musiqashunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Mavlono Muqimiy she‘riyatiga murojaat qilgan bastakorlarning asarlarini to‘g‘ri tahlil va talqin qilishda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishga, shuningdek, ilmiy jamoatchilikka Muqimiyning o‘zbek musiqa san‘atiga qo‘shgan hissasini shu paytgacha e‘tibor doirasidan chetda qolgan jihatlari bilan yaqinroq tanishishga hamda musiqa san‘ati manbalarini boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar oliy ta‘lim muassasalari, o‘rta maxsus ta‘lim va umumta‘lim maktablarida o‘zbek milliy musiqasini o‘rganishda yordamchi adabiyot bo‘lishi, shuningdek, “O‘zbek musiqasi tarixi”, “Maqom asoslari”, “O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kabi maxsus fanlarga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalar uchun ma‘lumotlar manbayi bo‘ldi.

**Dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi.** “Muqimiy va o‘zbek musiqa san‘atining rivoji” tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Muqimiy ijodiy merosi va uning zamondosh san‘atkorlar – hofiz, sozanda, bastakor hamda kompozitorlarning faoliyati doirasida yaratilgan “Bayot”, “Chorgoh”, “Ushshoq”, “Navo”dan tashqari “Ko‘cha bog‘i”, “Gulyor”, “Kurt” kabi musiqiy namunalar mavjudligi “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari

uyushmasi”ning shu’ba majlislarida foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2023-yil 17-noyabrdagi 01-04/116-197-son ma’lumotnomasi). Natijada yosh bastakor va musiqashunoslarning Muqimiyning ijodiy merosi hamda uning mumtoz musiqa tizimidagi muhim o‘rni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishiga erishilgan;

Muqimiy she’riyatidagi musiqiy atamalardan savt, navosanju, nag‘masaro, ruhafzo xonish, cholg‘ulardan setor, tanbur, qonun, dutor, ruhavzo hamda maqomlardan “Bayot”, “Ushshoq”, “Gulyor” kabilar ijrochilik amaliyotida foydalanilganligidan “Madaniyat va ma’rifat” telekanali ijodkorlari tomonidan tayyorlangan “Avjida” ko‘rsatuvining “O‘zbek musiqasida “Tanovar”larning o‘rni” mavzusiga bag‘ishlangan sonida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali davlat muassasasining 2025-yil 21-yanvardagi 01-16/13-son ma’lumotnomasi). Pirovardida tomoshabinlarning badiiy saviyasini yuksaltirishga, mavzuni samarali targ‘ib etishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston bastakorlari tomonidan ijod qilingan – Faxriddin Sodiqovning “Ey, chehrasi tobonim”, To‘xtasin Jalilovning “Ol xabar”, Fattohxon Mamadaliyevning “Ayrilmasun”, Furqat Bobojonovning “Ey, yori jonim” Dugoh va Chorgoh pardasi, ya’ni ohang tizimi, ritmik tuzilishi va ijro uslubi nuqtai nazaridan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga yaqin ekanligiga oid ma’lumotlardan O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tomonidan 2024-yil 28-fevral kuni Buxoro viloyati Buxoro davlat universitetida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblining konsert dasturida foydalanilgan (O‘zbek milliy maqom san’ati markazining 2024-yil 26-martdagi 01-12/118-son ma’lumotnomasi). Natijada konsert tinglovchilari Muqimiy merosi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishgan;

Muqimiy siymosining musiqali drama, maqom spektakli va kino san’ati kabi janrlarda musiqiy asarlarda usul-ritmning murakkabligi, ijro uslubi mukammalligi, diapazon kengligi, so‘zlarning bo‘g‘inlarga to‘g‘ri taqsimlanishi kabi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilganiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 18-apreldagi 02-11-17-1201-son ma’lumotnomasi). Pirovardida yosh tadqiqotchi, pedagog-xodimlar yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishlariga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy va amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta maqola chop etilgan, ulardan 6 tasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda, xususan, 2 ta xorijiy, 4 ta respublika jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot masalalari shakllantirilib, tanlangan mavzu va uning hozirgi zamon san’atshunoslik ilm-fani taraqqiyotida dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“XIX asr Farg‘ona vodiysi madaniy-musiqiy hayoti”** deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Birinchi bo‘lim **“Farg‘ona vodiysi musiqa madaniyatining rivojlanish manzarasi”** deb nomlanadi. Tarixdan ma‘lumki, XIX asrda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida Farg‘ona vodiysi muhim o‘rin tutgan. Bu davr xususida tarixchilar Haydarbek Bobobekov, Hojiakbar Hamidov, Shodmon Vohidov, Bahrom Irzayevlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar yozildi<sup>7</sup>.

Markaziy Osiyo Rossiyaga qo‘shib olinishi ko‘plab shoir va shoiralarning ijod namunalarida aks ettirildi. Mazkur asrda yashab o‘tgan Anbar Otin Uvaysiy (1870–1915) ham bu hamkorlik aloqalari borasida quyidagi misralarni bitdi:

Qo‘shulib mulki Farg‘ona o‘rusga bu saro bo‘ldi.

O‘rus o‘zbek eliga tug‘ushgandek og‘o bo‘ldi<sup>8</sup>.

Farg‘ona vodiysiga turli soha vakillari bo‘lmish ko‘plab tadqiqotchi, olim va ziyolilar kelib, xalqning yashash sharoiti, madaniy hayoti bilan yaqindan tanishib, o‘rgana boshlashdi. Ular orasida Vladimir Nalivkin, Nikolay Belyavskiy, Sofiya Krukovskaya, Anatoliy Kolbinsev va Mixail Alibekovlar bor edi. Ularning yozib qoldirgan kundaliklari, nashr qilingan bir qator manbalari<sup>9</sup> o‘sha muhit borasida imkon qadar tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Bu hududga yuborilgan san‘atdan xabardor mutaxassislar o‘zbek milliy musiqasini o‘rganish bilan birga Yevropa va rus musiqa madaniyatini tadqiq etishga kirishdi.

Mazkur ocherklarda, rus sayyohlarining ko‘plab maktublarida o‘zbek xalqining musiqali hayotidan taassurotlar, ularning mumtoz ashula va qo‘shiqlari, musiqiy sozlari, o‘ziga xos raqs san‘ati, shuningdek, mualliflarning ba‘zan o‘zbek xalq musiqasi, uning boshqa sharq xalqlari musiqasi bilan o‘xshash va farqli tomonlari haqida fikr-mulohazalar borligiga guvoh bo‘lamiz.

Farg‘ona vodiysi san‘atkorlari va ularning ijodiy faoliyati haqida ko‘p manbalardan kerakli dalillar keltirish mumkin. Birgina hofizlik san‘atiga e‘tibor qaratilsa, mazkur hududdan Madali hofiz, Sodirxon hofiz, Erka qori Karimov, Hamroqul qori, Zebo pari, Mamatbuva Sattorov, Ashurali hofiz, Abdulla Taroq, Berkinboy Fayziyevlarning nomlarini keltirish o‘rinli.

XIX asr o‘rtalariga kelib, tarix sahnasiga Mirza Barot Qosimov (Samarqand), Hoji Yusuf (Farg‘ona), Is‘hoqjon Ibrat, Nodim Namongoniy (Namangan) kabi madaniy harakatchilikning dastlabki namoyondalarini yetishtirgan o‘zbek xalqi

<sup>7</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: ЎЗР ФА “Фан”, 1996 Ҳамидов Ҳ. Қўқон хонлигида маданий-адабий жараёнлар тарихидан // Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон: 2022. 7-10 июн; Воҳидов Ш. XIX–XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фан. докт... дисс. – Тошкент: 1999; Ирзаев Б. Ўзбек муסיқа маданияти тарихи саҳифаларидан. – Тошкент: “Академнашр”, 2017.

<sup>8</sup> Анбар Отин. Шеърлар. Рисола. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 1970. 8 – б.

<sup>9</sup> Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: 1886; Белявский. Материалы по Туркистану, б. м. 1894; Круковская С.М. Встречи с Кокандом. – Ташкент: 1977; Колбинцев А. Фарғона водийси бўйлаб. 1979; Алибеков М. Домашняя жизнь последнего Кокандского хана Худаярхана. Ежег. Ферг. обл., т. II, 1903. – С. 94 и сл.

keyinroq Komil Xorazmiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi mashhur ziyolilarni chiqardi.

Yuqorida nomlari keltirilgan ma‘rifatparvar shoirlar shunchaki ijodkor emas, balki novator bo‘lib namoyon bo‘lishdi. Ayniqsa, Muqimiy xalq manfaatini ustun qo‘ygan holda faoliyat yuritgan badiiy so‘z ustasi sifatida muhrlanadi. Shu bilan birga, o‘zbek xalqining madaniy hayotida bu o‘zgarish sari qo‘yilgan odimning ijobiy va salbiy tomonlari ilk marotaba Muqimiy ijodida aks ettirildi.

“O‘zbek musiqasi tarixi” (Toshkent, 1981) o‘quv qo‘llanmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 1896-yilda Nijniy Novgorodda bo‘lib o‘tgan Butunrossiya ko‘rgazmasi doirasida o‘zbek orkestrlarining chiqishlari yuksak baholanadi. Xususan, “Русская музыкальная газета” nashrida N.Findeyzen va I.Lipayev tomonidan chop etilgan maqolalarda O‘rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatining yorqinligi va o‘ziga xos uslubi xususiyatlari alohida ta’kidlanadi.

Mashhur tarixchi va musiqachi Hojiakbar Hamidov bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, “Farg‘ona vodiysining qir va tog‘lik tumanlaridagi aholi orasida ko‘plab baxshi san‘atkorlar ham bor edi. Ular ham turli tantana va bayramlarga, xalq sayllariga, to‘y-hashamlariga muxlislar tomonidan doimo taklif qilinardi. Baxshi san‘atkorlar orasida ayniqsa ustoz Haydar ota Boychayev eng mashhuri bo‘lib, u “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam”, “Shirin va Shakar”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi yirik dostonlarni ijro etib, xalq orasida dong‘i ketgan edi”<sup>10</sup>.

Ta’kidlash joizki, Farg‘ona vodiysi teatr san‘atida masxarabozlik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik va qiziqchilik rivoj topdi. Sa‘di Maxsum, Matholiq qiziq, Abdulla fonus, Normat qiziq, Yusufjon qiziq kabilar yetuk namoyandalar sifatida e’tirof etildi. Bu san‘at shaklining xalqona hazil, kinoya va ijtimoiy-tanqidiy ruhga asoslangan jihatlari shoirlar ijodida, jumladan, Muqimiy hajviyotida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shoir asarlarida satira va yumor unsurlarining paydo bo‘lishi hamda ularning o‘ziga xos badiiy xususiyatlar bilan boyitilishi ana shu madaniy muhitning bevosita ta’siri natijasida shakllanganini alohida qayd etish lozim.

### 1.2. bo‘lim “**Qo‘qon shahri musiqiy muhiti**”ga bag‘ishlanadi.

Moziyga nazar tashlansa, ma‘lum bo‘ladiki, Qo‘qon shahri xonlik poytaxti bo‘lish bilan birga asosiy madaniy markazlardan biri hisoblanardi. U yerda o‘z davrining ko‘plab qobiliyatli san‘at ahli to‘planib, o‘ziga xos ijodiy muhit barpo etildi. Sharqshunos-etnograf tadqiqotchi A.L.Troitskaya o‘z izlanishlarida tomosha shaklidagi namoyishlar xususida to‘xtalib o‘tadi. Bunday tadbirlarni sozanda va xonandalar boshlab bergan bo‘lsa, qiziqchi va dorbozlar aravalarda o‘tib, yakunlaganlar<sup>11</sup>. Qo‘qon aholisi uchun odatiy ko‘ringan tomosha san‘ati xoriydan tashrif buyurganlar uchun o‘ta ajablanarli namoyish tarzida gavdalanardi.

Xonlik davrida o‘tkazilgan xalq bayram va sayllarida san‘atkorlar asosiy ishtirokchi sifatida taklif etilgan. Akademik Haydarbek Bobobekov bu borada qiziqarli faktlarni keltiradi: “Turkiston general-gubernatorining vakili I.Ibragimov Qo‘qondagi maydonda musiqachilar uchun maxsus o‘rnatilgan karuselni ko‘rganligini ta’kidlaydi. Uning so‘zlariga qaraganda, bayramlarda unga

<sup>10</sup> Хамидов Х. Қўқон хонлигида мадания-адабий жараёнлар тарихидан // Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон: 2022. 7-10 июн. 138-б.

<sup>11</sup> Троицкая А. Народный театр в Узбекистане. Намза номидagi san‘atshunoslik instituti arxivi. Inv. 203, 51-son, 1-qism, 196-б.

musiqachilar bir necha qator o'tirib, kuy va ashula ijro etishgan. Karusel esa sekin aylantirilgan"<sup>12</sup>.

Qo'qon xonligida nom qozongan ko'plab iste'dodli hofiz, sozanda, raqqos, masxaraboz yoxud qiziqchilik bilan shug'ullangan san'atkorlarga Xudoyorxon bir qancha talablar qo'ygan, ya'ni: ".....masxaraboz va qiziqchi, birinchidan, unga huzur bag'ishlasin, uni qah-qah urdirib kuldirsin, zil ketayotgan ko'ngliga taskin bersin, ikkinchidan, saltanati, shon-shavkatini bezasin, rang bersin, uchinchidan, dushmanlaridan o'ch olish va umuman fe'liga yoqmaganlarni jazolashga yordam qilsin, to'rtinchidan, barakasi uchayotgan xazinasini to'ldirishga oz bo'lsa ham ulush qo'shsin"<sup>13</sup>. Xudoyorxon tomonidan belgilangan vazifalar bajarilmagan taqdirda san'atkorlar ta'qib va tazyiqlarga duch keladi. Bu holat ayrim mashhur ijodkorlarning Qo'qondan chetga chiqib yashashiga sabab bo'ladi. Shunga qaramay, bir qator shoirlar xon sha'nini madh etuvchi she'rlar yaratishda davom etishadi.

Qo'qon xonlari saroyida maqom va katta ashula san'atlarining eng iste'dodli vakillaridan Ashurali Mahram, Rustam hofiz, Boymat hofiz, Muhammad mehtar va Zebo parilar xizmat qilgani ma'lum<sup>14</sup>.

Tadqiqotning birinchi bobi uchinchi paragrafi **“Muqimiyga zamondosh san'at ustalari”**ga bag'ishlangan.

Muqimiy davri musiqachilari haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri bu o'zbek musiqasi rivojiga o'zining mazmundor dramalari bilan munosib hissa qo'shgan yozuvchi Sobir Abdullaning “Mavlono Muqimiy” romanidir<sup>15</sup>. Undan Qo'qon shahri muhiti, urf-odatlarini, musiqiy hayotini yoritish uchun foydalanildi. Muqimiy davrida yashab ijod qilgan san'atkorlar, xususan, xonanda, sozanda va bastakorlik bilan shug'ullanib kelgan ko'plab siymolarning nomlarini keltirish mumkin. Ular qatorida Shodmon hoji, Muhammadjon “Makaylik”, usta Komiljon, Levi, Rayhon, Farzincha, Xo'ja Ma'ruf, Abduqahhor, Abdulla Taroq, Sodirxon, Hoji Abdulaziz, Hamroqul qori, Shobarot, Shojalil, Mulla To'ychi, Shodmon hoji, Zebo pari, Abdullaxon hoji, Nosir kosagar, Isroiljon, Ismoil mahram, Solih hoji kabi san'atkorlarni qayd etish lozim.

Musiqasana'atiga mehri baland bo'lgan Muqimiy tomonidan bitilgan g'azallar, she'rlar, murabballarni xonanda va sozandalar qisqa fursat ichida kuyga solib keng omma e'tiboriga havola etishadi. Balki shu sababdan bo'lsa kerak, ma'rifatparvar shoirning she'rlari zamondoshlari tomonidan keng tarqaldi va tezda xalq orasida mashhurlikka erishdi.

Adabiyotshunos olim G'ulom Karimovning Muqimiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitobida quyidagilar qayd etilgan: “Xalq san'atkorlari bilan hamkorlik masalasida ayniqsa Muqimiy ajralib turadi. U o'z zamonasining Erka qori, Ismoil ota, Farzinbek, Mamajon Makay va shuning kabi bir qator shuhrat qozongan cholg'uchi va ashulachilarini, Nizomxon nomli bastakorini adabiy gruppaning ijodiy ishida aktiv ishtirok etishlariga erishdi”<sup>16</sup>. Va bu jarayon san'at ahli bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamladi. Ular bilan ijodiy kechalar

<sup>12</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: ЎзР ФА “Фан”, 1996. 187-б.

<sup>13</sup> Qambarov A., Mannopov S., Najmetdinova M. O'zbek san'ati tarixi. – Toshkent: “Farg'ona”, 2021. 37-б.

<sup>14</sup> Ibrohimov O. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari xususida. O'z DSMI xabarlarini. 2022/3 (23). 33-б.

<sup>15</sup> Собир Абдулла. Мавлоно Муқимий. Бадий лавҳалар. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 1978.

<sup>16</sup> Каримов Ф. Муқимий ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат”, 1970. 66-б.

uyushtirdi, shoir, sozanda, xonanda va bastakorlar yig'ilishidagi majlislar natijasida yangi asarlar paydo bo'lishiga zamin yaratildi.

Dissertatsiyaning **“Muqimiy va XX asr bastakorlik ijodiyoti”** nomli II bobi ikki bo'limdan iborat. XX asr o'zbek musiqa san'atida Muqimiy so'zlariga ko'plab mumtoz qo'shiq, yalla, ashula, katta ashula, maqom yo'llari hamda o'zbek bastakorlarining badiiy barkamol asarlari yozildi<sup>17</sup>. Fikrimizning dalili sifatida Imomjon Ikromov (1891–1980), Jo'raxon Sultonov (1893–1965), To'xtasin Jalilov (1896–1966), Yunus Rajabiy (1897–1976), Otavali Nuriddinov (1900–?), Muxtorjon Murtazoyev (1909–1994), Muhammadjon Mirzayev (1913–1999), Faxriddin Sodiqov (1914–1977), Komiljon Jabborov (1914–1975), Saidjon Kalonov (1914–1972), Dadaali Soatqulov (1917–1985), Fattohxon Mamadaliyev (1923–1999), Orifxon Hotamov (1925–2002), Eson Lutfullayev (1935–2000) nomlarini keltirish o'rinli.

2.1. bo'lim **“Muqimiy va o'zbek musiqa folklori”** deb nomlanadi. Mashhur rus tarixchi olimi Mixail Alibekov o'zining *“Farg'ona viloyati yilnomasi”* to'plamida *“Qo'qonning so'nggi xoni Xudoyorxonning oilaviy hayoti”* (*“Домашняя жизнь последнего Кокандского хана Худаярхана”*)<sup>18</sup> sarlavhasi ostida chiqqan maqolasida Qo'qon xoni Xudoyorxon saroyidagi kanizlar qo'shiq qilib ijro etgan bir nechta she'riy matnlarni keltiradi. Muallif tutqinlikka tushgan kanizlarning g'am-anduhga muhtalo bo'lganligi haqidagi qo'shiqlardan namunalar keltirib, shular ichidan to'rttasi Muqimiy qalamiga mansub murabba va g'azallar ekanligiga e'tibor qaratadi. Unda birinchi murabba *“Ul kun jonon”*, ikkinchi murabba *“Endi sandek”* yoxud *“Ko'nglim sandadur”*, uchinchi *“Kelding”* hamda *“Zor-u nolon aylading”* sarlavhasi ostidagi murabباسi keltiriladi.

O'zbekiston musiqa san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan atoqli bastakor To'xtasin Jalilov Muqimiy she'rlari<sup>19</sup>ga ko'p marotaba murojaat qildi. Bu ijod mahsullarining ichida *“Ol xabar”*<sup>20</sup> ashulasi alohida mavqega ega. T.Jalilovning mazkur asari badiiy barkamol musiqiy namunalardan sanaladi. Darvoqe, *“Ol xabar”* kuyining asosiy manbasi *“Otmagay tong”* uchun asos qilib olindi.

Dastlab ushbu asar vodiya nom qozongan, Andijon ijrochilik maktabining yirik vakili, baland va yoqimli tembr ovozga ega bo'lgan Berkinboy Fayziyev<sup>21</sup> tomonidan talqin qilindi. Mashhur san'atkor ijrosida yangragan mazkur ashula o'zining originalligi bilan ajralib turadi.

Hofiz kuy yo'llarining juda baland avjlarini ixchamroq holga keltirib, ovoz pardalarini tanbur cholg'usiga moslab ijro etdi. Zabardast hofiz yuqori avj pardalarini hech qanday qiyinchiliksiz zabt eta oldi. Ohang va she'riy misralarga juda mohirona yondashdi, ya'ni jumlar B.Fayziyev tomonidan to'liq holda ijro etiladi.



<sup>17</sup> Karimova N.A. Muqimiy va o'zbek mumtoz musiqasi // *“O'zbek musiqiy merosining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati”*. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: 2023. 83-b.

<sup>18</sup> Алибеков М. Домашняя жизнь последнего Кокандского хана Худаярхана. Ежегодник Ферганской области. Том II. – Маргелан: 1903. – С. 106, 108.

<sup>19</sup> *“Gulistonim mening”*, *“Ol xabar”*, *“Muqimiy”* tarixiy-musiqali dramasi: *“Oshkor o'lg'ay sirim”*, *“Navbahor”*, *“Muncha ham”*, *“Zoru shaydo aylading”*.

<sup>20</sup> Xalq orasida *“Dilxiroj”*, *“Qalandar IV”* kuyi bilan ham ijro etiladi.

<sup>21</sup> Berkinboy Fayziyev (1885–1945) – Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida tavallud topadi, keyinchalik Andijonga borib, o'sha yerda yashab ijod qiladi. Muqimiy qalamiga mansub *“Yor vasli”*, *“Ul kun jonon”*, *“Aylading”* kabi ashulalarni ijro qilgan.

Asar plastinkada yozib olish uchun aytilganligi sababli ulgurish maqsadida ijro sur'atining ham tezlashganligi eshitaladi. Nazarimizda, plastinkada vaqt chegarasi borligi uchun Berkinboy Fayziyevda erkin holda ijro etish imkoniyati bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, bandlar orasidagi qaytaruvlarni aksari olib tashlanadi.

Aksariyat san'at ahli "Ol xabar"ni o'zbek mumtoz musiqasi tarixida yorqin o'rin egallagan Fattohxon Mamadaliyev nomi bilan bilishadi. Ashulaning tarkibiy qismlari hisoblangan daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovardlarning tartib bilan o'z o'rnida kelishi Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan nishona desa bo'ladi. Fattohxon Mamadaliyev bastakorlik ijodiga oid "Ol xabar" ashulasi "Dugoh" pardasiga asoslanadi.

O'zbek xalq musiqasi to'plami ichida "Qalandar IV", "Ol xabar" nomlari bilan yuritilayotgan mazkur namuna nafaqat ashula, cholg'u, balki jo'rovoqlik va jo'rnavozlikka moslangan ijro talqinlari bilan ham mashhur. Dutorchi qizlar ansambli ijrosida yangragan "Ol xabar" bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ular ijrosidagi mazkur ashula o'zga kuy negizida talqin qilindi. Ansambldagi qizlar ijrosidagi namunada so'zlar aniq, har bir jumlasini to'liq, ohangga mos tushirib ijro etilgan. Musiqiy bezaklar hisoblangan nola, qochirimlardan me'yorida foydalanilgan.

Fattohxon Mamadaliyevning kuylashi bahonasida "Ol xabar" ashulasi xalq orasida tanildi va mashhur bo'ldi. Mazkur ijod namunasi uning talqinida maromiga yetkazib, mukammal darajada ijod qilinganki, hozirgi vaqtgacha asar muallifi sifatida Fattohxon Mamadaliyev tan olinadi. Bunga asosiy sabablar:

- ✓ usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi;
- ✓ ijro uslubining mukammalligi;
- ✓ diapazon kengligi;
- ✓ o'ziga xos kuy rivoji;
- ✓ vazmin xarakteri;
- ✓ o'zgacha nolalari (mungli);
- ✓ so'zlarni bo'g'inlarga taqsimlanishi;
- ✓ har bir bayt ikki marotabadan takrorlanadi.



Muqimiy ijodining badiiy salohiyati shunchalik keng qamrovli xususiyatga ega ekanki, uning she'rlari nafaqat mumtoz yalla, ashula va katta ashula janrlarida, balki zamonaviy milliy estrada yo'nalishida ham o'ziga xos tarzda talqin etilib, yangicha musiqiy shakllarda yangramoqda.

Hozirgi davrda mazmundor she'r tanlash, uni milliy ohanglar bilan uyg'unlashtirish, mukammal qo'shiq va ashulalar yaratish masalasi milliy estrada ijodiyotida dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shunga qaramay, badiiy saviyasi yuksak, mazmun va shakl jihatidan yetuk asarlar hanuz mavjud bo'lib, ularning yaratilishi mumtoz adabiy merosning zamonaviy musiqiy tafakkur bilan uyg'unlashuvini ifodalaydi.

Kompozitor Furqat Bobojonov bastalagan "Ey, yori jonim" asarini tahlil qilish jarayonida "Dugoh" maqomi pardalariga mos kelishi aniqlandi. "Ey, yori jonim"ning avj qismiga haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Sababi aksar san'atkorlar avjga kelganda so'zlarni aniq talaffuz qilishmaydi. Buning natijasida ba'zi harflarni ham tushirib qoldirish kuzatiladi. Ehtimol, ijrochi bunda bezak berishni maqsad qiladi.



Biroq sifatsiz talqin musiqa asari haqida noto'g'ri tasavvur qoldirishi bilan birga ma'nosiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sardor Toirov tomonidan yangragan mazkur namunada so'zlar dona-dona talaffuz qilinib, tinglovchilarga tushunarli tarzda yetkazib beriladi.



2.2. bo'limda Faxriddin Sodiqov, Fattohxon Mamadaliyev kabi atoqli bastakorlarning ashulalari tahlil uchun tanlab olingan bo'lib, **“Muqimiy va o'zbek mumtoz musiqasi (ashula, katta ashula, maqom misolida)”** deb nomlanadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, benazir sozanda va atoqli bastakor Faxriddin Sodiqov bastalagan kuy, qo'shiq va ashulalarning har biri o'z janriga xos tarzda ijodkorona tatbiq etilgan. Ularning ichida 1935-yili bastalangan “Ey, chehrasi tobonim” alohida tahsinga sazovor. Mazkur asar o'z zamonida Matyoqub Rahimov, Marhabo Rahmatullayeva, Fotima Boruxova, Sherali Po'latov, Mahmudjon G'ofurov, Abdug'ofur Abdurahmonov, Shahnoza Ismoilova tomonidan magnit tasmalariga muhrlangan. Biroq Kommuna Ismoilovanning benazir ijrosidagi “Ey, chehrasi tobonim” shu kunga qadar tinglovchilar orasida keng tanilgani bejiz emas, albatta. Faxriddin Sodiqov bastalagan “Ey, chehrasi tobonim”ni tinglaganda uning Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan “Chorgoh” yo'liga juda yaqin ekanligi tasdiqlanadi.

Mazkur ashulaning umumiy shakli chizmada ifoda qilinsa, quyidagi tasvir yuzaga keladi:

Cholg'u muqaddima	1-band	2-band	3-band	4-band	5-band
She'r matni	A	B	C	D	E
Musiqiy shakli	A / \ a+a <sub>1</sub> b+c	B / \ a+b bog'. c+d	C / \ a+b c+d	B <sub>1</sub> / \ a+b bog'. c+d	C <sub>1</sub> / \ a+b c+d
	1-xat	2-xat kengaytirilgan	3-xat	4-xat kengaytirilgan	5-xat
	16 takt	20 takt	16 takt	20 takt	16 takt

Toshkent va Farg'ona vodiysi san'atkorlari ijro bisotida Muqimiy g'azali bilan aytiladigan “Ayrilmasun”<sup>22</sup> ashulasi ma'lum va mashhur. O'zbek hofizlaridan Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Murodjon Ahmedov, Kamoliddin Rahimov, Eson Lutfullayev, Xotam Qosimov, Muhammadjon Karimov, Rahmatjon Qurbonovlar mazkur musiqiy asarni maromiga yetkazib ijro etishdi. “Ayrilmasun” diapazon jihatidan katta bo'lmasa-da, baland pardalarda ijro qilinishi bilan murakkab asardir. Ko'proq tenor ovoziga mos kelganligi uchun asosan erkaklar tomonidan ijro etilgan.

Ammo Fattohxon Mamadaliyev o'z ijod mahsuli “Ayrilmasun” ashulasiga chapandoz usulini qo'llashni sinab ko'rdi. Zuhra Olimova talqinida esa oldingi ijrolardan tubdan farq qiladi.



<sup>22</sup> Muqimiy. Intizor (Qo'shiqlar). Tuzuvchi: E.Ochilov. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021. 124–125-b.


Musiqashunos olim Ravshan Yunusovning Fattohxon hofizga bag‘ishlab yozilgan monografiyasida ham bu fikrimiz tasdig‘ini topgandek ko‘rinadi: “Nazarida, tilga olingan ashulaning adabiy ma‘no-mazmuni musiqiy bayon uslubiya-tiga mutlaqo mos tushmagan. Ayniqsa, jozibali ufar usuli bilan tezkor ijro sur‘ati g‘azal so‘zlariga mutanosib emas, deb haqli ravishda ta’kidlardir u. O‘ynoqilikka moyil kuy-ohanglar ham zarur holatga teskari tushgandek tuyulardi”<sup>23</sup>.

Musiqqa muallifi Fattohxon Mamadaliyev izlanishlari natijasida “Ayrilmasun” ashulasi ayol xonanda tomonidan yangicha talqin qilindi.

O‘zbek bastakorlari ijodida Muqimiy she‘riyatiga oid bo‘lgan asarlar qancha miqdorni tashkil etishiga qiziqdik. Natijada qo‘shiq, ashula, yalla, katta ashula janrlarida ijod qilingan mualliflik asarlarining statistikasini hisoblab chiqishga harakat qilindi.

Quyidagi keltirilgan diagramma<sup>24</sup>da Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Imomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Nabijon Hasanov, E.Ermatov, Karimjon Mansurov, Dadaali Soatqulov, Sobir Boboyev kabi bastakorlarning Muqimiy asarlariga murojaati son ko‘rsatkichida kam bo‘lganligi sababli keltirilmadi.

**Diagramma № 1.**



2018-yilda nashr qilingan “O‘zbek maqomlari” risolasida ta’kidlanishicha, ayni paytda ushbu maqomlarda Farg‘ona-Toshkent maqom uslubiga xos oddiyroq qo‘shiq, ashula, yalla va katta ashula janrlarining xususiyatlari aks etgan. Bu holat ularning musiqiy tilining xalqchil va nisbatan ommabop ekanligini, shuningdek, oddiy xalq orasida keng tarqalgan va qabul qilingan bo‘lishini izohlaydi”<sup>25</sup>.

Muqimiyning g‘azal, murabba, muxammaslariga XX asrda yashab ijod qilgan bastakor-sozandalarning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining ohanglari negizida

<sup>23</sup> Юнусов Р. Фаттоҳхон ҳофиз. – Тошкент: “Adast poligraf”, 2022. 126-b.

<sup>24</sup> Ўзбек халқ музыкаси (I-IV жилд. Тўпловчи ва нотага олувчи Юнус Ражабий. И. Акбаров таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт”, 1955-1959 й) kitobida bastakorlarning shoirlar she‘rlariga murojaatining ko‘rsatkichi.

<sup>25</sup> Юнусов Р. Ўзбек мақомлари. – Тошкент: “O‘zbekiston”. 2018. 45-b.

kuy, qo‘shiq, yalla va ashulalar yaratib kelganliklari ularning o‘zbek xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek bastakorlik ijodiyotidagi zabardast shoir tufayli erishilgan cho‘qqilarni belgilab berdi.

Tadqiqotning **“Muqimiy siymosi san’at asarlarida”** nomli III bobi uch bo‘limdan iborat.

3.1. bo‘lim **“To‘xtasin Jalilov va Georgiy Mushelning “Muqimiy” musiqali dramasi”** deb nomlanadi. Ushbu paragrafda o‘zbek musiqali drama teatr san’atining shakllanish va rivojlanish jarayoniga oid musiqashunos va teatrshunoslar tomonidan ko‘plab taqriz, maqola, kitob va tadqiqotlar<sup>26</sup> yozilgani, unda mualliflar mazkur janrning tarixiy va ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil etishga kirishishgani haqida bayon etilgan.

Mazkur musiqiy sahna asari shoir-dramaturg Sobir Abdulla tomonidan yozildi. O‘zbekiston xalq artisti, bastakor To‘xtasin Jalilov hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kompozitor Georgiy Mushelga klavir partituralarini yozish hamda o‘zbek xalq kuylarini simfonik orkestrga moslashtirish vazifasi yuklatildi.



